
«YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARI, BIRLASHAYLIK!» SHIORI OSTIDA MA’NAVIY-MA’RIFIY TADBIR O‘TKAZILDI

Shu kunlarda Toshloq tumanidagi mahallalarda "Yoshlar oyligi" doirasida qator loyihalar, intellektual tanlovlar, uchrashuvlar, sport musobaqalari hamda gala konsertlar bo‘lib o‘tmoqda.

Kuni-kecha "Axshak" MFYda ko‘plab yoshlar ishtirokida yosh estrada xonandalari bilan birgalikda konsert dasturi o‘tkazildi.

Tadbirda mahalla yoshlari o‘rtasida sport musobaqalari ham tashkil etilib, ishtirokchilar munosib taqdirlandi.

Tashkil etilgan tadbirda ko‘ngilochar dasturlar namoyishi hamda harbiy orkestrlarni chiqishlari yoshlar va aholi vakillariga ko‘taringki kayfiyat bag‘ishladi.

2023-06-23 09:57:04